



BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING ROLI

Qambarov A.M.

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat”
kafedrası katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: ta’lim, pedagogik texnologiyalar, didaktik jarayonlar.

Ключевые слова: личност студента, инновация, педагогическая технология, учебный процесс, воспитательный процесс, социальная культура студента, профессионализм.

Key words: personality of the student, innovation, pedagogical technology, educational process, educational process, student social culture, professionalism.

Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatlarning jadal sur’atlarda rivojlanishi pedagoglar, chunonchi qishloq xo‘jaligi sohasidagi oliy ta’lim pedagoglari oldiga pedagogik nuqtai nazardan quyidagilarni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarni tarbiyalash texnologiyalarini;

- talaba yoshlarni tarbiyalashning integrallashgan, bosqichma-bosqich ta’lim-tarbiya mexanizmini ishlab chiqish va uni bevosita amaliyotga, ta’lim tizimiga joriy qilish;
- talaba yoshlarni tarixiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali milliy g‘oyani ularning qalbi va ongiga singdirishga erishish;
- yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan, sifatli mutaxassis tayyorlashda asosiy e’tiborni nafaqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki aqli raso komil insonni, milliy g‘oya bilan tarbiyalangan, ijodiy fikrlaydigan va axborotlarga tanqidiy nuqtai nazardan ishlov beradigan, vatanimizda bo‘layotgan turli o‘zgarishlar va hodisalarni o‘z qalbida his qiladigan, buning ravnaqi uchun jon kuydiradigan, hayotiy muammolarni hal qilishda uzoqni ko‘rabiladigan professionalni tarbiyalashga qaratmoq zarur. Mamlakatimizda barcha sohalar bo‘yicha jadal rivojlanish, modernizatsiya qilish kechayotgan bir paytda,

avlodni, xususan axborot texnologiyalari va qishloq xo‘jaligi sohasidagi talabalarni, munosib tarbiyalashning o‘quv-uslubiy tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlarini, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Biz oldimizga tarbiya sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha konkret masalalarni qo‘ymoqdamiz:

- na faqat raqobatbardosh mutaxassislarini ;
- bozor iqtisodiyoti talabiga mos keladigan;
- shaxsiy maqsadlariga erishaoladigan va manfaatlarini muxofaza qilaoladigan mutaxassisni tayyorlash emas.

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shaxs: manbani o‘zi o‘qiganida 10 %; ma’lumotni eshitganida 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %; ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Shunga ko‘ra interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab- quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi”.

Bizning bosh maqsadimiz ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan, ilmiy dunyo qarashi shakllangan, yuqori madaniyatli va fuqorolik ma’suliyatini anglab etgan, zamonaviy kasbiy faoliyatni puxta egallagan, kelajagimizning porloq ma’naviy tamoyillari bilan sug‘orilgan, haqiqiy ruhan tetik mutaxassisni tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Orlov K. A. Osobennosti formirovaniya gumannosti na otdelnykh etapax razvitiya lichnosti// Sovershenstvovanie uchebno-vospitatelnogo protsessa v obrazovatelnom uchrejdenii: sb. nauch. trudov. – M.: MGGU im. M. A. Sholoxova, 2007. – S. 162-165.
2. Xajieva I. A., Yusupov F. K probleme vospitaniya obrazovannogo i intellektualno razvitogo studenta v sovremennoy sotsiokulturnoy situatsii //Ilm sarchashmalari, UrDU, Urganch. – 2012, №11. – 86-89 s.



3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T. O'qituvchi. 1992. – 14 b
4. Ibraximov A. Vatan tuyg'usi. T. O'zbekiston. 1996. – 110 b. Karimov I.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli va ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'lish xususiyatlarini ko'rish mumkin. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.

РЕЗЮМЕ

В работе, речь идет о формировании личности студента нового типа, умеющего адекватно ориентироваться и действовать в изменяющейся социокультурной ситуации, т. е. студент вуза должен быть гуманным, гуманно образованным, способным менять себя и социум, быть способным активно решать насущные проблемы профессиональной деятельности.

SUMMARY

In job, the speech goes about formation of the person of the student of a new type able adequately to be guided and to work in varied By sociological culture of a situation, i.e. the student of high school should be humane, Humanely formed (humanely educated), capable to change itself and sotsium, be capable actively to decide (solve) essential problems of professional activity.